
Ichki yo'llarda shag'allash ishlari davom etmoqda

Rishton tumanida mavjud 71 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida aholini qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etish, ularga qulayliklar yaratish borasidagi ishlar davom etmoqda.

Ayniqsa ko'p yillardan buyon qishda loy, yozda chang bo'lgan yo'llarni shag'allash, ravon, tekis yo'llarga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hokimlik mutasaddilari har bir ko'chani ahamiyatidan kelib chiqib, uning holatini o'rganib chiqishmoqda.

O'rganish natijalarida tegishli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, tuman yo'lsozlari, homiy pudratchi korxonalar ko'magida asfal'tlash, shag'allashtirish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Bu kabi ishlar tumanning chekka hududlaridagi mahalla, ko'cha va yo'llarga ham kirib bordi. Xususan, tuman shtabi ishchi guruxi a'zolari Davlat xavfsizlik xizmati boshlig'i, Tuman hokimi o'rinbosari N.Oripov, tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i X.Tashpo'latov, tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi boshlig'i X.Xojixonov va boshqa mas'ul tashkilotlar raxbarilari xamkorlikda tumandagi ichki yo'llarini qum-shag'al aralashmasi bilan shag'allashtirish rejasiga asosan tumandagi "Jalaer" MFYdagi 1000 metr, Oq-er MFY xududidagi 300 metr ko'chalarida qum-shag'al aralashmasi bilan shag'allashtirish ishlari tashkil etildi.

2022-10-27 10:57:46